

№1-AMALIY ISHI

Mavzu: Lokal kompyuter tarmog'ini tashkil etish va unda ishlash.

Ishning maqsadi: Talabalarga lokal kompyuter tarmog'ini tashkil etish va unda ishlash bo'yicha amaliy ishlashni o'rgatish.

Ish uchun kerakli jihozlar: kompyuterlar, tarmoq uchun kerakli qurilmalar va dasturiy vositalar.

Qisqacha nazariy ma'lumotlar. Kompyuterlardan turli xil masalalarni hal qilishda foydalanish mumkin. Axborot almashinish uchun magnit va kompakt disklardan foydalanish yoki boshqa kompyuterlar bilan umumiy tarmoqqa ulanish kerak bo'ladi. Kompyuterlarning o'zaro axborot almashinish imkoniyatlarini beruvchi qurilmalar majmuiga kompyuter tarmoqlari deyiladi. Tarmoqning asosiy imkoniyatlari tarmoqqa ulangan kompyuterlar va axborot ashyolariga bog'liq bo'ladi. Axborot ashyolari deganda arxiv, kutubxona, fondlar, ma'lumotlar ombori va boshqa axborot tizimlaridagi hujjatlar yig'indisi tushuniladi. Tarmoqdagi kompyuterlarda saqlanayotgan axborot ashyolariga ushbu tarmoqqa ulangan boshqa kompyuterlar yordamida kirish mumkin.

Kompyuterlar uchun tarmoqqa biriktirilgan holda foydalanish juda ko'p afzalliklarga ega. Masalan, kompyuter tarmog'iga ulangan bir printerni barcha foydalanuvchilar birgalikda ishlatishi, biror tashkilot miqyosida hisobotni tez tayyorlash uchun uni bo'limlarga bo'lib, xar bir bo'lagini alohida tarmoq kompyuterida tayyorlash mumkin. Fayllar, katologlar, printer, disklardan birgalikda foydalanish mumkin. Bu esa o'z navbatida tejamkorliklarga olib keladi. Shuning uchun kompyuterlar tarmoqqa birlashtiriladi. Tarmoqlarning fizik jihatdan biriktirilishi (simlar yoki boshqa yo'llar bilan) tarmoq o'zidan o'zi ishlayveradi, degan gap emas. Tarmoqdagi kompyuterlar tarmoq operatsion sistemasida ishlaydi. Hozirda ko'p ishlatilayotgan Windows OS tarkibida lokal tarmoqda ishlash imkoniyatini beruvchi dasturlar mavjud.

Topshiriqlar:

1. Kompyuterni tarmoqqa ulash qanday tartibda bajariladi?
2. Tarmoqda o'zingizning ishchi papkangizga tarmoqda ruxsat (доступ) bering.
3. Elektron kutubxonadagi ruxsat etilgan papkadagi mavjud kitoblar, ma'ruza matnlari, elektron darsliklar va boshqa adabiyotlardan foydalaning.
4. Ixtiyoriy ishchi guruh va ixtiyoriy kompyuterdagi ruxsat etilgan papkani toping va undagi *.* faylini o'zingizning ishchi papkangizga ko'chiring.
5. Istagan matn muharririda tarmoqda ishlash qoidalari bilan fayl yaratib tarmoq bo'yicha uni qo'shningizga jo'nating.
6. Ishchi guruhingizda tarmoq diskini yarating.
7. Internetga server orqali ulanish qanday bajariladi?